
Endi qishloqda ham zamonaviy ta'lim beriladi

Farg'ona viloyati Farg'ona tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida 650 dan ortiq o'quvchi zamonaviy sharoitlarda tahsil olmoqda.

Vodil qishlog'ida joylashgan mazkur maktabda tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar chuqurlashtirilgan tarzda o'qitiladi. Ta'limning ilg'or pedagogik tizimi samarali yo'lga qo'yilgan dargohda dars jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari, ko'rgazmali vositalardan keng foydalanilmoqda. O'quv-laboratoriya, kompyuter va fan xonalari, axborot-resurs markazi barcha jihozlar bilan ta'minlangan. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladigan muhtasham zal, sport majmuasi o'quvchilar xizmatida.

Muqimjon Qodirov (surat), O'ZA

2019-02-02 19:29:52